

SIYOSIY JURNALISTIKA JANRLARINING MUSTAQIL TELEKANALLAR FAOLIYATIDAGI O`RNI (SEVIMLI VA MENING YURTIM TELEKANALLARI MISOLIDA)

Hamdamova Oybahor Salohiddinovna

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Siyosiy-huquqiy jurnalistika yo'nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosiy jurnalistika tushunchasi o`rganib chiqiladi, undan tashqari bu sohaning mustaqil telekanallar ishidagi o`rni, ahamiyati, roli haqida so`z boradi.

Kalit so'zlar: Jurnalistika, siyosat, efir, dastur, intervyu, translatsiya.

KIRISH

Siyosiy jurnalistika turli xil vositalar, bosma, translyatsiya yoki onlayn hisobot orqali taqdim etiladi.

Jurnalistikada professional yondashuvlarni qo'llashning turli xil usullari mavjud – urush jinoyatlarini qanday yoritish, qurbonlar va jarohatlar haqida qanday so'zlab berish, “ommaviy jurnalistika” bilan qanday shug'ullanish yoki “mas'uliyatli reportaj” ni qanday tayyorlash kerak – bu ayniqsa murakkab va ba'zan munozarali mavzudir, unda mojaroni qanday yoritish kerakligi va mojaroning oqibatlarini kelajakka qanday ta'sir qilishi haqida o'ylashga majbur qiladi. Ushbu mavzularning ba'zilari keyinchalik ushbu qo'llanmada muhokama qilinadi¹.

Ammo bularning barchasida va ommaviy axborot vositalarining jamiyat rivojiga va demokratiya rivojiga qo'shgan hissasi asosida voqealarni faktlarga asoslangan xolda yoritilishi yotadi.

Mas'uliyatli jamoatchilik muhokamasini ta'minlash uchun ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish, mansabdor shaxslarning jamoatchilik oldida javobgarligi darajasini oshirish va elektoratni xabardor qilish – bular demokratik jamiyatdagi ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifalaridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Siyosiy jurnalistikada xolislik asosiy o`rinda turadi. Ko'pgina jurnalistlarning odob-axloq kodeksi va odob-axloq qoidalari voqealarni tasvirlashda “xolislik” yoki “mustaqillik” ni ta'kidlaydi. Ammo bu tushunchani aniq qilib ta'riflab berish qiyin bo'lishi mumkin.

Xolislik degani, reportaj bir siyosiy partiyani, dinni, odamlarni yoki etnik guruhni boshqasiga zarar yetkazish uchun qo'llab-quvvatlamasligini anglatadi. Bu sizga partiyalarning siyosati va bayonotlari to'g'risida adolatli ma'lumot berishga imkon beradi va bir tomon yoki guruh boshqasiga nisbatan bildirishi mumkin bo'lgan sharhlarni o'z ichiga oladi. Ammo asosiy tamoyil shundaki, jurnalist to'g'ridan-to'g'ri o'z fikrini bildirmasligi, o'z sharhlarini aytmasligi yoki shaxsiy siyosiy xohishlarini ifoda qilmasligi kerak².

Muvozanat saqlangan jurnalistika haqiqat bilan fikr o'rtasidagi aniq farqni ta'minlaydi.

Ko'pgina mamlakatlarda tahririyatlar hech qanday moliyaviy yordamisiz yashab qolish muki emas deb hisoblashadi va siyosiy partiyalar, siyosatga ta'sir qiluvchi guruhlar yoki siyosiy manfaatlarga ega nufuzli ishbilarmonlar bunday qo'llab-quvvatlash uchun tabiiy

¹ Jahon jurnalistikasi tarixi 2006-yil. 317-bet.

² Zamonaviy media muhitda pr-xizmatlar .2019-yil.496-bet

nomzodlardek ko'riladi. Bunday holatlarda, gazetalar hech bo'lmaganda o'zlarining moliyaviy manbalari to'g'risida xalqni xabardor qilishlari kerak, shunda o'quvchilar ularning beg'arazligi to'g'risida o'z fikrlariga ega bo'lishlari mumkin.

Siyosiy ob'ektivlikni saqlash ko'p sabablarga ko'ra qiyin. Ba'zi mamlakatlarda ommaviy axborot vositalari to'g'ridan-to'g'ri bosim tagida qolishadi – agar ular hukumatni tanqid qilsalar va faqatgina mustaqil taraf bo'lishga harakat qilsalar ham, ular “xorijiy hukumatlarning malaylari” yoki tarafdorlari deb hisoblanishadi. Jamiyat juda qutblangan davrlarda o'z pozitsiyasini saqlab qolish ayniqsa qiyin.

Ob'ektiv bo'lish boshqa oddiy sabablarga ko'ra ham qiyin bo'lishi mumkin. Davlat rahbari tomonidan aytilgan so'zlar, shubhasiz, davlat rahbari ochiq tashviqot olib borgan taqdirda ham, qishloq ahlining fikridan ko'ra ishonchli xabar deb qabul qilinadi, dehqon esa davlat siyosatining poydevori zaiflashib qolganiga taalluqli bo'lgan e'tiborsiz qolgan muammolar haqida gapirayotgan bo'ladi.

Jurnalistlarning axloqiy kodeksi odatda ma'lumot manbalarini himoya qilishga katta ahamiyat beradi, ba'zan hatto qonunga zid bo'lib qolsa ham. Ba'zilar manbani oshkor qilmaslik uchun “axloqiy majburiyatlar” ni ta'kidlaydilar³.

Urush va tinchlikni yoritish institutida (IWPR) biz ma'lumot manbalarini himoya qilish jurnalistning asosiy huquqi deb bilamiz. Ammo bunday maxfiylik dunyo miqyosida xalqaro standart sifatida qabul qilingan deyish juda qiyin. Ba'zida maxfiylik buziladi va bu ko'pincha jurnalist yoki uning manbasi uchun jiddiy oqibatlar olib keladi. Jurnalistlar tashkilotlari – Xalqaro Jurnalistlar Federatsiyasi, AQSh Jurnalistlarini Himoyalash Qo'mitasi va Parijda joylashgan Chegara Bilmas Muxbirlar jurnalistlarning kuchli bosimdan (manba nomlarini oshkor qilishni istagan ba'zi repressiv hukumatlardan) himoya qilinishini istagan sud jarayonlarida qatnashdilar.

Amalda, manbani sir saqlashga va'da bergan, ammo keyinchalik uning nomini oshkor qilgan jurnalistlarga kelajakda axborot manbalarining ishonchini qozonish juda qiyin bo'ladi. Axborot manbai yoki siyosiy raqib matbuotda zarar keltiruvchi yoki aybni ochuvchi bir bayonotni e'lon qilganda, amaldorlar bu ma'lumot manbaini topishga harakat qilishadi, chunki ular bu odamni jazolashni va boshqa odamlarni kelgusida bunday ma'lumotlar sezdirilishi yomon oqibatlar olib kelishi bilan qo'rqitishni istaydilar.

XULOSA VA MUNOZARA

Jurnalistikaning siyosiy yo'nalishi jihatidan birbiridan farq qiluvchi bir nechta turi tarkib topdi, faoliyatning ijtimoiy hayotdagi o'rni va vazifasiga doyr turlicha qarashlar yuzaga keldi. Chunonchi, kommunistik Jurnalistika faoliyatiga partiyaviylik, sinfiylik asos qilib olindi. Bu hol ko'p hollarda umuminsoniy ma'noda axborot sohasida inson haq-huquqlari va erkinliklarining cheklanishiga, qo'pol ravishda poymol qilinishiga olib keldi. Jurnalistikaning taraqqiyoti qator omillarga bog'liq bo'lib, siyosiy erkinliklar, birinchi galda, matbuot erkinligi bu omillar orasida alohida o'rin egallaydi. Matbuot erkinligi demokratik jamiyat rivojining zaruriy sharti hisoblanadi. Jurnalistika erkin faoliyat sharoitidagina jamiyat a'zolarini xolis va haqqoniy axborot bilan ta'minlay oladi, davlat va jamiyat o'rtasida o'zini vositachi sifatida namoyon etadi.

Bugungi kunda Sevimli TV hamda Mening Yurtim telekanallarida ham bir qator siyosiy dasturlar mavjud. Jumladan Sevimli TV da "Zamon" dasturi, Mening Yurtim TV da esa "*Siyosiy* Debat" kabilar shular jumlasidandir.

³ Jurnalistika asoslari.2007-yil.53-bet.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Jahon jurnalistikasi tarixi 2006-yil. 317-bet.
2. Jurnalistika asoslari.2007-yil. 58-bet.
3. Jahon jurnalistikasi tarixi.2006-yil.167-bet.
4. Jurnalistika asoslari.2007-yil.53-bet.
5. Zamonaviy media muhitda pr-xizmatlar .2019-yil.496-bet.
6. Jahon jurnalistikasi tarixi.2006-yil.85-bet.
7. Zamonaviy media muhitda pr-xizmatlar2019-yil.27-bet.